



Axborot xabarnomamizning beshinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasi bo'yicha axborot xabarnomamizning beshinchi soniga xush kelibsiz. Bizning loyihamız O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishligi orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Fursatdan foydalanib, barcha o'quvchilarimizga kirib kelgan 2022 yilda sog'liq-salomatlik va farovonlik tilab qolamiz.

Ushbu son 2021-yilning oktyabr-dekabr oylarida loyiha doirasida o'tkazilgan tadbirlarni yoritadi. Bu sonda siz XSM missiyasining Toshkentga amalga oshirilgan tashrifi haqida batafsil ma'lumot olasiz. Tashrif Ishchi Guruhining 5- yig'ilishiga tayyorgarlik doirasida yuqori darajadagi treninglarni o'tkazish maqsadida amalga oshirildi.

Tashrif doirasida xususiy sektor vakillari a'zo bo'lish taklifi bilan, hamda a'zolikning biznes sektoriga ta'siri bilan tanishdilar. Shu bilan birga, ushbu son qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdoning o'ziga xos jihatlari, hamda ushbu savdoning salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar haqida yangilangan ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу обунани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Bizning faoliyatimiz va bugunga qadar erishgan yutuqlarimizni yaxshiroq tushunishingiz uchun biz ularni quyida berilgan loyihamiz doirasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan 5 ta maqsaddan kelib chiqib quyida berilgan toifalarga ajratdik.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

A'zo bo'lish jarayonining asosiy qismi JST a'zolariga muzokaralar uchun zarur bo'lgan amaldagi savdo-iqtisodiy siyosat haqida yangilangan ma'lumotlarni taqdim etishdir. Shu asosda loyiha (JSTga) a'zo bo'lish jarayoniga taaluqli bo'lgan hujjatlarini ko'rib chiqish va ishlab chiqishda maslahat ko'magini taqdim etishni davom etmoqda. Ushbu davr mobaynida loyiha xizmatlar sohasi doirasidagi aniq majburiyatlarni qayta ko'rib chiqishda ko'maklashdi. Ushbu taklif 2021 yilning noyabr oyida JST Kotibiyatiga taqdim qilingan edi. 2022 yilning boshida amalga oshirilishi rejalashtirilgan O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha Ishchi guruhning 5-yig'ilishi ushbu takliflarga asoslanadi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining (ITSV) so'roviga ko'ra JSTga a'zolik bo'yicha boshqa turdagi bir qator hujjatlar ham qayta ko'rib chiqilmoqda. Ushbu hujjatlar avvalroq JSTga taqdim etilgan edi.

Shu bilan birga, amaldagi muzokaralarni qo'llab-quvvatlash maqsadida moliya, hamda telekommunikatsiya yo'nalishidagi amaldagi qonunlarga normativ baho berish bo'yicha texnik ko'mak ko'rsatildi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lishning eng muhim talablaridan biri muayyan milliy qonunlarning JST shartnomalariga muvofiqligini ta'minlashdan iborat. Loyiha intellektual mulk huquqlari bo'yicha **O'zbekiston milliy qonunchiligini JSTning TRIPS shartnomasi va intellektual mulk bo'yicha tegishli xalqaro konvensiyalarning**, ya'ni Parij konvensiyasi va Bern konvensiyasi talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qilish ishini davom etdi. Loyiha doirasida amaldagi milliy qonunchilikni JST talablariga mos keltirish bo'yicha ishlar davom etadi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Loyiha JST shartnomalari va JSTning huquqiy asoslari bilan bog'liq masalalarni davlat xizmatchilari tomonidan tushunish darajasini oshirish uchun salohiyatni o'stirish bo'yicha o'quv tadbirlarini tashkillashtirishni davom ettirdi.

Jumladan, yuqori martabali davlat mulozimlarini rejalashtirilgan Ishchi Guruhining 5-yig'ilishiga tayyorlash maqsadida, 10-11 noyabr kunlari Missiyaning Toshkentga tashrifi tashkil etildi. Tadbirda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rinbosari, hamda O'zbekistonning JSTga a'zoligi bo'yicha muzokarachisi janob Badriddin Abidov ishtirok etdi. Tadbir "JSTga a'zo bo'lish doirasida to'lov balansi va savdo siyosati" mavzusidagi ikki kunlik seminar, hamda Markaziy Bank, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi ishtirokidagi, moliya xizmatlari bo'yicha masalalarni o'z ichiga olgan texnik uchrashuvlardan iborat bo'ldi.



Investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rinbosari Badriddin Abidov XSM tomonidan tashkil etilgan seminarida nutq so'zlamogda, 10 noyabr, 2021 yil, Toshkent.

Foto: XSM

Bundan tashqari, o'tgan davr mobaynida loyiha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining savdosi bilan bog'liq bir qator texnik o'quv mashg'ulotlarini tashkil qildi. Ushbu mashg'ulotlar GMO (qishloq xo'jaligi ekinlari) savdosini tartibga solish masalalari va chorva ozuqasi uchun "raktopamin" nomini olgan qo'shimchalarga nisbatan SFS choralarini qo'llash kabi masalalarni o'z ichiga oldi. Shu bilan birga, "JSTga a'zo bo'lish sharoitlari va oqibatlarini: Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Ukraina va Tojikistonning bu boradagi tajribasi"ga bag'ishlangan sessiya ham tashkil etildi. Unda alohida mamlakatlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosidagi tajribalari haqida ma'lumot berildi.

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

TBT va SFS bilan bog'liq masalalar bo'yicha mas'ul bo'lgan davlat muassasalarining institutsional salohiyatini mustahkamlash uchun ixtisoslashtirilgan texnik yordam ko'rsatish bo'yicha loyiha doirasida qo'llab-quvvatlash jarayoni davom ettirildi. Jarayondan TBT va SFS bilan bog'liq qonunlarni ko'rib chiqish va ularning JST qoidalariga muvofiq kelishini ta'minlash maqsadida isloh qilish o'rin oldi. Amaldagi ishlarga tayangan holda, loyihamiz mahalliy hamkorlarga qonunlarni il'gor tajriba va takliflarni inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqishda ko'mak berdi. Chora-tadbirlar qonunchilikning quyidagi yo'nalishlariga qaratildi:

- **Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risidagi qonun** - qonun loyihasining yangi tahriri ko'rib chiqildi va mahalliy hamkorlar bilan fikr almashildi.
- **Standartlashtirish to'g'risidagi qonun** - ko'rib chiqilganidan keyin loyiha bo'yicha fikr va takliflar taqdim etildi.
- **Muvofiqlikni baholashni akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qonun** - ekspert tomonidan ko'rib chiqish uchun ilgari taqdim etilgan takliflarga muvofiq Akkreditatsiya to'g'risidagi qonunning yangi loyihasi tayyorlandi.
- **Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risidagi qonun** - qonun loyihasi ko'rib chiqildi, izohlar SFS bilan bog'liq idoralarga ko'rib chiqish uchun taqdim etildi.



JSTga a'zo bo'lishga bag'ishlangan tadbirda xususiy sektor vakillari ishtirok etdi, 12 noyabr, 2021 yil, Toshkent.

Foto: XSM

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihamizning asosiy maqsadi jamoatchilikning barcha qatlamlari orasida JSTga a'zolikning ta'siri haqida xabardorlikni oshirish, ularning manfaatlarini hisobga olish, hamda tushunmovchiliklarni bartaraf etish hisoblanadi.

Natijada, bu JSTga a'zo bo'lish bo'yicha hukumat va uning tarkibiy qismlari o'rtasida konsensusga erishishga yordam beradi. Missiyaning 2021-yil 12-noyabr kuni Toshkentga tashrifi doirasida loyiha "Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish, JSTning xizmatlar savdosi va ichki qo'llab- quvvatlash sohasidagi JST qoidolari to'g'risida" xususiy sektor uchun ikkinchi seminar tashkil etdi. Tadbir xususiy sektorga JSTga a'zo bo'lish jarayonini, hamda uning huquqiy bazasini tushuntirish maqsadida tashkil etildi. Tadbirda xususiy sektor vakillari, jumladan, eksportni rivojlantirish agentliklari, biznes uyushmalari va federatsiyalar ishtirok etdi. Uchrashuvda davlat sektorining asosiy vakillari – ITSV, hamda Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni bartaraf etish vazirligi ham ishtirok etdi.

ITSV bilan hamkorlikda xususiy sektorni kerakli axborotlar bilan ta'minlash bo'yicha imkoniyatlarning ko'rib chiqilishi davom etadi.